



Creating an Interface for Abdurauf Fitrat's Corpus of Works

Shahlo Hamroyeva and Mavjuda Alimbekova

EasyChair preprints are intended for rapid dissemination of research results and are integrated with the rest of EasyChair.

October 9, 2023

ABDURAUF FITRAT ASARLARI KORPUSI INTERFEYSINI YARATISH

Shahlo Hamroyeva Mirdjonovna

ToshDO‘TAU dotsenti , filologiya fanlar doktori

Alimbekova Mavjuda Xalimjon qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu tezisda Abdurauf Fitrat korpusini yaratishning ahamiyati yoritilgan. Muallif asarlari interfeysi yaratish, mavjud adabiyotlarni mavzu, uslub, janrlariga ko‘ra tasniflash va korpus qanday ruknlarni o‘z ichiga olishi yoritilgan.

Abstract: This thesis highlights the importance of creating the Abdurauf Fitrat corpus. Creation of interface of the author’s works, classification of existing literature according to topic style, genre and what columns the corpus includes are explained.

Kalit so‘zlar: Korpus, interfeys, janr, uslub, mualliflik korpusi, Abdurauf Fitrat asarlari

Key words: Corpus, interface, genre, style, authorship corpus , works of Abdurauf Fitrat

Kirish


Rivojlanib borayotgan kompyuter va axborot asri tilshunoslar va dasturchilar zimmasiga o‘zbek tilining jamiyat hayotida va xalqaro miqyosdagi e’tiborini oshirish, davlat tilining dunyo miqyosidagi nufuzi va o‘rnini yuksaltirish, o‘zbek tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish kabi dolzarb vazifalarini yuklamoqda. “Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2020- 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi”da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor yo‘nalishidagi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi yirik resursni yaratish va o‘zbek tilini internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta’minlash vazifalarining ko‘rsatib berilishi bilan biz mutaxassislarga katta mas’uliyat bo‘ldi”. [1;90] Shu kabi maqsadlar yo‘lida bajarilayotgan tadqiqtardan biri Abdurauf Fitrat asarlari korpusini yaratishdir.

Asosiy qism

Abdurauf Fitrat jadid namoyondalari orasida eng salmoqli ijod qilgan ijodkorlardandir. U dastlab ijodini shoirlikdan boshlagan bo‘lsa ham, adabiyotimiz tarixida o‘zining nazariy asarlari, ilmiy tadqiqotlari, o‘zbek adabiyoti tarixini chuqur o‘rgangani, o‘zbek tili va etimologiyasini tadqiq etgani bilan qadrlidir. Fitrat ijodi tarix, falsafa, filologiya sohasi vakillari bilan bir qatorda musiqa va shahmatchilar uchun ham birday ahamiyatli. Fitrat ushbu sohlalarda ham ilmiy izlanishlar olib brogan. Fors adabiyotshunosliga ham uning nazaridan chetda qolmagan. Fitrat asarlari korpusini yaratish yuqoridagi soha vakillariga ham, kitobxonlar uchun ham birday manfaatlidir. Fitratning ijodi o‘zi hayotlik chog‘idayoq faqat Turkistonda emas, Qrim, Qozon, Turkiya, Eron, Germaniyalik kitobxonlarning ham e’tiborini tortib ulgurgan edi. Fitrat ilmini tadqiq etish faqat turkiyzabon ilm ahli uchungina emas, balki dunyo ilm ahlining qiziqishida ekani uning qimmatli asarlarini bir joyga jamlashning zarur vazifa ekanini isbotidir. Shuningdek, Fitrat asarlari korpusini yaratish o‘sha davr tilini tadqiq etish, lug‘atlarini yaratish, so‘zlarda kuzatiladigan lingvistik hodisalarни qiyosiy-tarixiy usulda o‘rganishga yordam beradi. Fitrat kabi adabiy til rivojiga hissa qo‘sghan olim asarlarining leksikasini asrab qolish, nafaqat asrab qolish, balki butun ko‘lami bilan tavsiflash, til egalari uchun namuna vazifasini o‘taydigan model shakliga keltirish adabiy tilni asrash, rivojlantirish omili bo‘lib xizmat qiladi. [3;90-bet] Fitrat mualliflik korpusining yaratilishi o‘zbek milliy korpusini boyitishda ahamiyatlidir. Fitrat subkorpusi ilmiy, badiiy, publitsistik va darmatik asarlari bilan milliy korpusdagi elektron matnlarning mukammalligi, salmoqdoorligi va aniqligini ta’minlashga xizmat qiladi. Fitrat asarlarini korpus holatiga keltirish boshqa muallif asarlari korpusi kabi tadqiqotchiga ijodkor uslubi va uning so‘z qo‘llash mahoratini o‘rganish, ijodkor qo‘llagan ibora va maqollarni tahlil qilish, lirik turga mansub asarlardagi badiiy vositalar, badiiy san’atlarni tahlil qilish, asar tarkibida uchraydigan tarixiy so‘zlar yoki izohtalab so‘zlarni, matnning g‘oyasini semantik tahlilga qarab oson tushunish imkonini beradi. [2;81] Fitratning vatanparvarlik, millatsevarlik mavzularida yozilgan she’rlari yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga yordam bersa, muallifning hayoti va ijodini o‘rganish esa maktab o‘quvchilariga mustaqillikni qadrlashni, unga osonlikcha erishilmaganini tushuntirishda yordam beradi. Fitrat she’riyatidagi ramzlarning, o‘xshatish, sifatlash kabi badiiy san’atlarning izohi va nasriy asarlaridagi tushunarsiz bo‘lgan tarixiy va eskirgan so‘zlarning izohi o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi, lirikasidagi yashirin ma’nolarni o‘qiyotgan paytning o‘zida anglashi uchun semantik teglangan baza yaratish kerak bo‘ladi. Korpus quyidagi ruknlarni o‘z ichiga oladi:

1. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi. Ushbu bo‘lim muallif hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar bazasidan iborat
2. Badiiy asarlar
3. Ilmiy asarlar
4. Publitsistik asarlar
5. Janrlar
6. Oddiy va maxsus qidiruv
7. Korpus haqida

Badiiy asarlar ruknini “She’rlar”, “Dramalar”, “Nasriy asarlar” nomli uch oynaga bo‘lib, badiiy asarlarini adabiy turlarga ko‘ra tasniflab chiqamiz. “She’rlar” oynasiga “Tanlangan asarlar”ning I jildiga kiritilgan 21 ta she’rni kiritamiz. Ular quyidagilardan iborat: “Yurt qayg‘usi”, “Yurt qayg‘usi (sochma she’r)”, “Yurt aygusi” (bir o‘zbek tilidan), “Yurt qayg‘usi (Temur oldinda)”, “Kim deyay seni?”, “Biroz kul”, “Achchig‘lanma degan eding”, “Mirrix yulduziga”, “Ovunchoq”, “Ishqimning tarixi”, “Yana yondim”, “Nega bo‘yla”, “Shoir”, “Behbudiyining sag‘anasini izladim”, “Parcha”, “O‘gut”, “Sharq”, “O‘qitguvchilar yurtiga”, “Qor”, “Mening kecham”, “Go‘zalim, bevafo gulistonim”. Ushbu she’rlardagi badiiy tasvir vositalari, ramzlar, izoh talab so‘zlar izohlanib, ularning semantik teglari bazasi shakllantiriladi. Til birliklarini semantik teglashda o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Dramalari: “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyonи”, “Chin sevish”, “Hind ixtilochilari”, “Arslon”, “Vose qo‘zg‘oloni”. Nasriy asarlari: “Qiyomat”, “Hindistonda bir firangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg‘an munozarasi”, “Hind sayyohi bayonoti”, “Oila”. “Ilmiy asarlar” ruknini mavzusiga ko‘ra quyidagi oynalarga bo‘lish mumkin:



“Adabiyotshunoslik” oynasiga shu sohada yozilgan maqola, risola va ilmiy adabiyotlar kiritiladi. Ular “She’r va shoirlik”, “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida”, “Eng eski turk adabiyoti namunalari”, Fitrat “Tanlangan asarlar”ining II jildiga kiruvchi barcha asarlar adabiyotga doir ilmiy maqola va risolalar bo‘lib shu oynaga kiritiladi.

“Publitsistik asarlar” ro‘yxatiga matbuotda e’lon qilingan ijtimoiy-siyosiy maqolalari va maktublarini kiritiladi, ya’ni publitsistik asarlari ikki qismda tarmoqlanadi:

Maqolalar

"Buxoroda inqilob",
"Johilona taasubg'a misol",
"Sharq siyosati", "Musulmonlar,
g'ofil qolmang", "Sho'royi islomiya"ning xatosi",


"Buxoro ulamosi", "Siyosiy hollar",
"Muxtoriyat", "Buxoroning holi",
"Turkistonda ruslar",
"Angliz va Turkiston",

Maktublar

"Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachi afandi hazratlarini ochiq maktub"

"Yopishmagan gajaklar"

"Janrlar" ruknida Fitratning umumiyligi merosi janr bo'yicha ko'rsatiladi:



Fitratning 5 jildlik "Tanlangan asarlari "Ma'naviyat" nashriyotida H. Boltaboyev rahbarligida 2000 – 2010-yillarda nashr qilingan. To'plamdag'i barcha asarlar turli davrdagi nashrlar bilan solishtirilib, tuzatilib, to'ldirilib, mukammal holda nashr'etilganligi uchun ushbu to'plamdan baza sifatida foydalilanildi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Fitrat asarlari korpusini yaratishda uning ijodiy merosi uslub jihatdan badiiy asarlar, ilmiy asarlar, publisistik asarlar kabi turlarga; mavzusiga ko'ra adabiyotshunoslik, tilshunoslik, din, musiqa, shaxmat, ijtimoiy-siyosiy kabi turlarga; janriga ko'ra she'r, maqola, drama, maktub, ocherk, hikoya kabi turlarga bo'lib tasniflash va korpus interfeysi shu kabi ruknlarda yaratish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari/ “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2022. <http://compling.navoiy-uni.uz>
2. Alimbekova M. Jadid adabiyotini o‘rganishda mualliflik korpusining ahamiyati/ “O‘zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya – Samarqand, 2023.
3. Hamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari.. Falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2021.